

## XOSIYAT BOBOMURODOVA IJODIDA ALLITERATSIYA POETIK INDIVIDUALLIKNI TA'MINLOVCHI VOSITA SIFATIDA

Normurodova E'zoza To'lqinjon qizi

SamDU Filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi

[ezozanormurodova1999@gmail.com](mailto:ezozanormurodova1999@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11429409>

**Annotatsiya.** *She'riyatimizda keng qo'llaniladigan takrorlardan biri alliteratsiyadir. Alliteratsiya misralar jozibasini yanada orttiradi va she'riy asarning ohangdorligini ta'minlaydi. Alliteratsiya poetik individuallikni ko'rsatuvchi vosita sifatida Xosiyat Bobomurodova she'riyatida alohida o'ringa ega figuralardan biridir.*

**Kalit so'zlar:** *Badiiy takror, alliteratsiya, vocal alliteratsiya, konsonant alliteratsiya, birikmali alliteratsiya.*

### ALLITERATION AS A MEANS OF PROVIDING POETIC INDIVIDUALITY IN THE CREATION OF KHOSIYAT BOBOMURODOVA

**Abstract.** *One of the repetitions widely used in our poetry is alliteration. Alliteration increases the charm of verses and ensures the melodiousness of a poetic work. Alliteration as a means of showing poetic individuality is one of the figures that has a special place in the poetry of Khosiyat Bobomurodova.*

**Key words:** *Artistic repetition, alliteration, vocal alliteration, consonant alliteration, compound alliteration.*

### АЛЛИТЕРАЦИЯ КАК СРЕДСТВО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПОЭТИЧЕСКОЙ ИНДИВИДУАЛЬНОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ ХОСИЯТ БОБОМУРОДОВОЙ

**Аннотация.** *Одним из широко используемых в нашей поэзии повторов является аллитерация. Аллитерация увеличивает очарование стихов и обеспечивает напевность поэтического произведения. Аллитерация как средство проявления поэтической индивидуальности – один из фигур, занимающий особое место в поэзии Хосият Бобомуродовой.*

**Ключевые слова:** *Художественный повтор, аллитерация, голосовая аллитерация, согласная аллитерация, составная аллитерация.*

O'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan shoirlaridan biri bo'lgan Xosiyat Bobomurodova ijodi o'zining bir qator xususiyatlari bilan boshqa ijodkorlardan ajralib turadi. Shoira she'rlari sodda o'qishli tilda yozilganligi, ijodining har bir qirrasida hayotiy tasvir, izchil voqea-hodisalar aks ettirilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Xosiyat Bobomurodovaning ramziy-timsoliy fikrlash tarzi, ohorli tashbehlari, xalqchil she'rlari yangi o'zbek adabiyotining nurli sahifasini tashkil etadi[2]. Xosiyat Bobomurodova o'zbek adabiyoti daryosida o'z oqimini yarata olgan shoira hisoblanadi.

Shakliy jihatdan turli ko'rinishlar hosil qilib, mohiyatga ta'sir etuvchi bugungi kun she'riyati ko'plab yangilanishlarga egadir. Badiiy asarda shakl bir nechta maqsadga xizmat qiladi: har bitta ijodkorning individual o'ziga xosligini ko'rsatish; badiiy asarning ta'sir etuvchi va kitobxon ongida o'zgacha mohiyat ifodalovchi qolipini yaratish; badiiy asar talablaridan kelib chiqqan holda g'oya hajmiga mos shaklni berish; janr talablarini janrning o'ziga xos shaklida

(vaznida) namoyon etish va boshqalar. Shu jihatdan qaralganda, shoira she'riyati o'zining individualligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Bu individuallik Xosiyat Bobomurodova she'rlarida qo'llangan poetik takrorlarda ham yaqqol ko'zga tashlanishi bilan ahamiyatlidir.

Barcha shoirlar singari Xosiyat Bobomurodova ijodida ham keng qo'llanilgan takrorlardan biri alliteratsiyadir. Alliteratsiya vositasida shoira she'rlari yanada jozibali, tantanavorlik kasb etganligini ko'ramiz.

Alliteratsiyaga ilmiy adabiyotlarda quyidagicha ta'rif beriladi: "Alliteratsiya (lot. ad – old, -ga + litera – harf). Misralar, undagi so'zlar boshida bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanishi[3, 12]. „Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati“da alliteratsiya quyidagicha izohlanadi: "Alliteratsiya. Nutqda tovushlarning mos kelishi.

Alliteratsiya unli yoki undosh tovushlarning mos kelishiga qarab ikki xil bo'ladi: a) unli tovushlarning uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelgan vokal alliteratsiya; b) undosh tovushlarning uyg'unlashuviga asoslangan konsonant alliteratsiya. Alliteratsiya she'riy asarning ohangdorligini ta'minlaydi. Ayrim hollarda alliteratsiyaga asoslanib she'rlar ham yaratadilar. T. Boboyevning „Adabiyotshunoslik asoslari “kitobida alliteratsiya” fonetik-stilistik usul sifatida badiiy nutqning intonatsion ifodaviyligini va ohangdorligini kuchaytiruvchi vosita“ sifatida izohlanib, uning xalq og'zaki ijodida ham keng qo'llanilishi ta'kidlanadi.

Xosiyat Bobomurodova she'rlarida alliteratsiya misradagi so'zlarda tovush takrori yoki ohangdosh so'zlarni birgalikda qo'llash orqali yuzaga chiqadi. Shoira ijodida, asosan, „s“, „q“, „sh“, „t“, „y“, „j“, „k“, „m“ kabi tovushlarning alliteratsiyani hosil qilishi va bu she'riy misralarga o'zgacha ohang olib kirganligini ko'ramiz.

Fonetik takror sirasiga kiruvchi alliteratsiyaga oid tahlillar va misollar Xosiyat Bobomurodova she'riyatida talaygina. Shuni ta'kidlash kerakki, alliteratsiya hodisasi tashqi tomondan nutqni ta'sirchan qilishga xizmat qilsa-da, eng asosiysi misralardagi semantik ma'no butunligi hisoblanadi. Agar shoir faqatgina badiiy tasvir vositasiga muvofiq she'r yozadigan bo'lsa, kutilgan natija bermasligi mumkin. Alliteratsiyaga me'yoridan ortiq zo'r berish ham she'ring ma'no tomoniga putur yetkazishi mumkin. Xosiyat Bobomurodova she'rlarida alliteratsiyaning yuksak namunalarini ko'rishimiz mumkin. Alliteratsiya shoira misralarida poetik individuallik darajasiga ko'tarilgan. Misralarda shakl va ma'no butunligi saqlangan, bir-biriga muvofiq tarzda qo'llanilgan. Dastlab shoira she'rlarida qo'llangan tovushlar uyg'unligini ko'rib o'tamiz. Xosiyat Bobomurodovanning "Dialog" nomli she'ri orqali alliteratsiyaning yorqin namunalariga qator misollarni ko'ramiz. She'ring deyarli har bir bandida alliteratsiya poetik vosita sifatida qo'llangan. She'ring dastlabki bandidayoq „d“, „m“, „n“ hamda „s“ tovushlarining uyg'un tarzda qo'llanganligi she'riy misralarning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

**Dilbarim, dildorim, shirinim** mening,

**Nafosatim, nazokatim, gulimsan.**

Yurakning to'rida o'rinim mening,

**Shakarim, asalim, yoniq dilimsan**ю [1; 237.)

She'riy parchada nafaqat tovushlar balki qo'shimchalar takrori ham o'ziga xos tarzda qo'llaniladi. So'zlardagi tovushlarning o'zaro uyg'unligi misralarga o'zgachalik, ohangdorlik bag'ishlagan. Yuqorida ta'kidlanganidek, unli va undosh tovushlar takrori vokal va konsonant

allitratsiya turini hosil qilgan. Keyingi bandlardagi alliteratsiya ham betakror hodisa sifatida bo'y ko'rsatganday bo'ladi:

Yonimda jim yashaydi toshlar,

**Sadalarim solmaydi soya.**

To'kilsa ham ko'zimdan yoshlar,

Birortasi qilmas himoya. [1; 222]

Mazkur parchada birikma hoida qo'llanilgan (Sadalarim solmaydi soya) so'zlardagi tovushlarning o'zaro uyg'unligi misralarda o'ziga xoslik kasb etmoqda. Shuningdek, birgina „s“ **tovushining** alohida ohangdorlik hosil qilayotganligini ko'ramiz. Umuman olganda, she'riyatda „s“ tovushining alliteratsiya hosil qilishi juda ko'p uchraydi. Xosiyat Bobomurodovaning "Ixtiyor senda" nomli she'rida ham aynan "s" tovushi alliteratsiya hosil qilgan.

Sening izming bilan yashash osonmas

Sen – kulgu, sen - ko'zyosh, sen – tinmas jonsan!

Sen bilan yo'l yurgan axdidan tonmas,

Sen – ishqqa joy bergan toza vijdotsan. [1; 9]

She'rdagi har bir misraning "s" tovushi bilan boshlanishi ham poetik ta'sirchanlikni oshishiga sabab bo'lgan. Bu misralarning yana bir o'ziga xosligi shundaki: Misra aynan "s" harfi bilan boshlanib, shu harf bilan tamomlanadi. Bu esa she'rda o'zgacha bir ohangdoshlikni yuzaga chiqargan. Shoiraning "Ketibdir" nomli she'rida ham alliteratsiyaning yangi ko'rinishini kashf qilishimiz mumkin.

Nedan kular yulduzlar, nedan ko'ngli yarim oy,

Qorong'udir kunduzlar, ko'kdan quyosh ketibdir.

Qirqta jonim qo'lida, vujudimning joni yuq,

Jafokashim yo'lida ketsa bir bosh ketibdir.[1; 185]

Ushbu misralarda nafaqat „k“ tovushi, balki „q“ tovushi ham birgalikda alliteratsiyaning yuzaga chiqargan. Bu tovushlarning band qatorlarining deyarli har bir so'zida ketma-ketlik bilan ishtirok etishi ham o'ziga xoslik kasb etgan.

„Q“ hamda "K" undoshlarining tasviriy imkoniyati matn tarkibidagi tovushlarning umumiy fonida unchalik sezilmasligi mumkin. Ammo poetik asarlarda alliteratsiya elementi sifatida qo'llanganda ularning mohiyati o'zgaradi. Badiiy matnda ba'zan qat'iyat, ba'zan mayinlik kabi ottenkalarni namoyish etib, ijodkor ruhiy olamidagi tug'yonlarning yuzaga chiqishiga ko'maklashadi[4, 69-70]. Biz ko'rib o'tgan misralarda ham „q“ va "k" tovushlari qat'iyat va keskinlikni ifodalab, shoiraning ichki sezimlarini, kechinmalarini ochishga xizmat qilib kelgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Alliteratsiya Xosiyat Bobomurodova she'rlarida eng ko'p qo'llanilgan takror turlaridan biridir. Yuqoridagi misralardan ham ma'lum bo'ladi, alliteratsiya misralarning tantanavorligini, jo'shqinligini ta'minlashda hamda o'quvchiga estetik zavq berishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shoiraning bir qancha she'rlarida badiiy takrorning yuqorida aytilgan vazifalari bilan birgalikda, muallif nutqini yanada ta'sirchan qilish vazifasi ham bajarilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa shoira ijodining o'ziga xos jarangdorligi, boshqa shoirlar ijodida takrorlanmaydigan ko'rinishlari borligi bilan ajralib turadi.

## REFERENCES

1. Xosiyat Bobomurodova. Saylanm. 1-jild. Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashiriyot-matbaa ijodiy uyi,2021. – 256 b.
2. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand. 1994.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensklopediyasi”. Davlat ilmiy nashiriyoti. 2002, - b. 12.
4. Umirova S. O‘zbek she’riyatida lingvistik vositalar va poetic individuallik. Samarqand, 2019 – B. 69-70.
5. Ma’rufjon Yuldoshev. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashiriyoti, 2008.
6. Karimov S. O‘zbek tilining badiiy uslubi. – Samarqand: Zarafshon, 1992.
7. D.Islamova. Linguistic representation and methods of its expression in artistic text. International Bulletin of Engineering and Technology (IBET). Volume: 3, Issue: 7. – Amerika, 2023. – P. 137-141.
8. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=t18kgDYAAA\\_AJ&citation\\_for\\_view=t18kgDYAAA\\_AJ:ULOm3\\_A8WrAC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=t18kgDYAAA_AJ&citation_for_view=t18kgDYAAA_AJ:ULOm3_A8WrAC)
9. Islamova D. Expressive means of language and transposition. International Bulletin of Applied Science and Technology (IBAST). Volume: 3, Issue: 5. – Germaniya, 2023. – P. 1231-1234. (Impact factor: UIF = 8,2 | SJIF = 5,955). <https://doi.org/10.5281/zenodo.7992882>
10. Yusupova O. People's oral creative work and syntactic parallelism. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). Volume: 10, Issue: 3. – P. 242-246.
11. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:ajmr&volume=10&issue=3&article=036>
12. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=VpmtxiEAAA\\_AJ&citation\\_for\\_view=VpmtxiEAAA\\_AJ:ZzISgRqYyKMC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=VpmtxiEAAA_AJ&citation_for_view=VpmtxiEAAA_AJ:ZzISgRqYyKMC)